



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 11 | pp. 469-473 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

KORXONALARDA MOLIYAVIY FAOLIYATDAN OLINGAN

DAROMADLARNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH



Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Buxgalteriya hisobi" kafedrasida assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqola, moliyaviy faoliyat kishi yoki biron bir korxonada shu jumladan tashkilotning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda, shuningdek, strategik maqsadlariga erishishda, iqtisodiy o'sishda muhim vazifani bajaradi. Moliyaviy faoliyat butun jahon global iqtisodiyotda savdo, investitsiya va moliyaviy almashuvning tarqalishiga hamda ko'payishiga olib keladi. Moliyaviy faoliyat o'z navbatida moliyaviy resurslarni boshqaradi.

Kalit so'zlar: Moliyaviy faoliyat, strategik maqsadlar, iqtisodiy o'sish, global iqtisodiyot, investitsiya, moliyaviy almashuv, moliyaviy resurs, fond bozorlari, fond bozori tendensiyasi, investorlar, moliyaviy risklar, moliyalashtirish, xalqaro moliya, byudjet, daromadlar, xarajatlar, moliyaviy hisobotlar, kreditlar, korxonada qarzlari, moliyaviy hujjatlar.

Annotation: This article discusses, how financial activity plays a crucial role in ensuring the financial stability of individuals or organizations, including businesses, and in achieving strategic goals and fostering economic growth. Financial activity contributes to the spread and increase of trade, investment, and financial activity involves the management of financial resources.

Key words: Financial activity, strategic goals, economic growth, global economy, investment, financial exchange, financial resources, stock markets, stock market trends, investors, financial risks, financing, budget, revenues, expenses, financial statements, loans, corporate debts, financial documents.

Аннотация: Данная статья обсуждает, как финансовая деятельность играет важную роль в обеспечении финансовой стабильности человека или организации, включая бизнес, а также в достижении стратегических целей и содействии экономическому росту. Финансовая деятельность способствует распространению и увеличению торговли, инвестиций и финансовых обменов в глобальной экономике. В свою очередь, финансовая деятельность включает в себя управление финансовыми ресурсами.

Ключевые слова: Финансовая деятельность, стратегические цели, экономический рост, глобальная экономика, инвестиции, финансовый обмен, финансовые ресурсы, фондовый рынок, тенденция фондового рынка, инвесторы, финансирование, международные финансы, бюджет, доходы, расходы, финансовые отчеты, кредиты, долги предприятия, финансовые документы.

KIRISH

Bugungi kunda korxonalarining moliyaviy faoliyati milliy va xalqaro iqtisodiyotda muhim o'rin tutadi. Raqobatbardoshlikni oshirish, kapital oqimini boshqarish, shuningdek, xalqaro bozor talablari va standartlariga moslashish zarurati korxonalar uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotida ham korxonalar daromadlarini optimallashtirish, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tayyorlash va moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilash muhim ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (XMHS) korxonalar moliyaviy faoliyatini shaffof va tizimli boshqarishga imkon beradi. Bu esa, investorlarning ishonchini oshirish, korxonalar moliyaviy holatini mustahkamlash va mamlakatning iqtisodiy o'sishiga hissa qo'shadi. Shuning uchun, korxonalar daromadlarini xalqaro standartlar asosida boshqarish va takomillashtirish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Moliyaviy boshqaruv va xalqaro standartlar bo'yicha ilg'or ilmiy tadqiqotlar bir necha mualliflar tomonidan olib borilgan.

1. Adam Smit o'zining "Millatlar boyligi" asarida iqtisodiy resurslarni samarali boshqarish va daromadlarni taqsimlash masalalariga alohida e'tibor qaratgan.

2. Richard Musgrave davlat moliyalari nazariyasida korxonalarining moliyaviy faoliyatini barqarorlashtirish bo'yicha takliflarni ilgari surgan.

3. Meyer & Kuh (2020) o'z tadqiqotlarida XMHS asosida moliyaviy hisobotlarni takomillashtirishning global tajribasini o'rgangan va ularning afzalliklarini aniqlagan.

4. Joan Cortes esa moliyaviy boshqaruvda innovatsion yondashuvlarning daromadlarni oshirishdagi ahamiyatini tahlil qilgan.

O'zbekiston kontekstida esa, iqtisodchi olimlar tomonidan mahalliy moliyaviy boshqaruv usullari va xalqaro standartlarni joriy qilish bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Masalan:

Bahodir Qodirov – XMHSni O'zbekiston korxonalarida joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqqan.

Madina To'laganova – xalqaro moliyaviy hisobot standartlari va ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri haqida ilmiy izlanishlar olib borgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Moliyaviy faoliyat – bu aslida keng tushuncha bo'lib, shaxslar, bizneslar va davlatlar o'rtasidagi moliyaviy resurslarni boshqarish va almashish, ularning ehtiyojlariga qaratilgan moliyaviy manbalarni taqsimlash hamda sarflash bilan bog'liq bo'lib, investitsiyalar qilish, aktivlarni boshqarish, kutilmagan xarajatlarga tayyorlanish va boshqa moliyaviy operatsiyalarni o'zida ifodalaydi. Moliyaviy faoliyat har qanday iqtisodiy tizimning muhim tarmog'idir va u biznes va shaxsiy moliya uchun samarali qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

"Moliyaviy faoliyat- bu korxonalarining asosiy bo'lmagan faoliyati tarkibiga kiruvchi, o'zga korxonalar (bank va boshqalar)mablag'larini korxonaga kredit va qarz sifatida kiritish, hamda jalb qilish bilan bog'liq faoliyat hisoblanadi".¹

¹ "Экономика и социум" N6(109)-1 2023

Moliyaviy faoliyat takomillashishi uchun avvalo korxonalar moliyaviy barqarorlikka erishgan bo'lishi lozim. "Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning nazariy jihatlar va ilmiy asoslarini tushuntirishda mamlakatimiz va xorijiy iqtisodchi olimlarning yondashuvlari tadqiq qilingan. Xorijiy yirik korporatsiyalarning moliyaviy natijalari va moliyaviy ko'rsatkichlarining tendensiyalari tahlil qilingan".²

Moliyaviy faoliyat rivojlanishi albatta uning o'ziga xos yo'nalishlari maqsadlari bilan farqlanadi. Moliyaviy operatsiya jarayonlarini amalga oshirishda asosiy yo'nalishlar mavjud bo'lib ular quyidagilar:

-Biznes moliyasi: Kompaniyalar o'z mablag'larini qanday boshqarishi, moliyaviy rejalashtirish va investitsiya strategiyalaridir.

-Shaxsiy moliya: Odamlarning o'z daromadlari, xarajatlari va jamg'armalarini boshqarish usullaridir.

-Davlat moliyasi: Davlat byudjetini boshqarish, soliq siyosati va davlat mablag'laridan foydalanishdir.

Moliyaviy faoliyatning maqsadlari qilib quyidagilarni keltirishimiz mumkun:

-Manfaatlarni maksimal darajada oshirish.

-Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash.

-Risklarni boshqarish va minimallashtirish.

Moliyaviy faoliyat davlat, korporativ yoki shaxsiy ehtiyojlarini qondirishda moliyaviy resurslarni yig'ish, taqsimlash va sarflash bilan bog'liq bo'lgan asosiy jihatlar quyidagilar:

-Byudjet tuzish va rejalashtirish: O'z moliyaviy resurslarini samarali boshqarish uchun rejalar va strategiyalar tuzish.

-Investitsiyalar: Moliyaviy resurslarni samarali ishlatish va rivojlantirish maqsadida investitsiya qilish.

-Moliyaviy hisobotlar: Daromad va xarajatlarni kuzatish va tahlil qilish uchun moliyaviy hujjatlarni tayyorlash.

-Kredit va qarzlari: Moliyaviy resurslarni olish va qaytarish jarayonlari.

-Risklarni boshqarish: Moliyaviy risklarni aniqlash va ularni kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqish.

Yuqoridagi fikrlar shuni ma'lum qiladiki, moliyaviy faoliyat shaxs, davlat va har qanday korxonalar, tashkilot rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlar buxgalteriya hisobi instruksiyasiga kiritilgan bo'lib, tashkilotning kiritilgan xususiy kapitali, kreditlari, qarzlari va shunga o'xshash majburiyatlari miqdori va tarkibini o'zgarishini o'zida aks etadi.

Moliyaviy faoliyatdan daromadlar- deganda qimmatli qog'ozlar, valyuta operatsiyalari, kredit va qarzlarni berishdan olingan daromadlar tushuniladi. Bularga royalti, dividendlar va foizlar, ijobiy kurs farqlari ko'rinishidagi daromadlar va boshqalar kiradi.

"Moliyaviy faoliyatdan daromadlar quyidagi turlardagi daromadlarga bo'linadi:

² Abdullayeva Madinabonu Xasanboyevna "Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting 4 (03), 264-270,2

- boshqa korxonalar faoliyatiga hissali qatnashishdan daromadlar, aktsiyalar bo'yicha dividendlar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar;
- mulkni moliyaviy ijara (lizing)ga topshirishdan olingan daromad;
- valyuta schetlari, jumladan xorijiy valyuta operatsiyalari bo'yicha ijobiy kurs farq;
- qimmatli qog'ozlarga, sho'ba korxonalariga va boshqalarga kiritilgan mablag'larni qayta baholashdan daromadlar;
- olingan royalti va kapital transferti;
- moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar.”³

Korxonalarda moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarni xalqaro standartlar asosida boshqarish bir nechta asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tayyorlash

Moliyaviy hisobotlar korxonaning faoliyatini baholashda muhim manba hisoblanadi. XMHS asosida tayyorlangan hisobotlar nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham ishonchli va shaffof bo'lishi bilan ajralib turadi. Bu esa xalqaro investorlar va hamkorlar bilan ishlashda qo'shimcha afzallik beradi.

2. Soliq va daromadlarni boshqarish

Soliq yuki korxonalar daromadiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro amaliyotda, korxonalarining moliyaviy faoliyati soliqqa tortish tizimi bilan uzviy bog'liqdir. Soliq rejimlarini optimallashtirish orqali korxonalar daromadlarini oshirish mumkin.

3. Raqamlashtirish jarayonlarini joriy etish

Moliyaviy boshqaruv jarayonlarining raqamlashtirilishi hisob-kitoblarning tezkor va aniq bo'lishini ta'minlaydi. Elektron moliyaviy tizimlardan foydalanish bilan moliyaviy axborotlarning shaffofligini oshirish va xarajatlarni kamaytirish mumkin.

4. Moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilish

Korxonalarining daromad ko'rsatkichlarini doimiy tahlil qilish ularning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Daromadlar tarkibini va ularning o'zgarish sabablarini chuqur o'rganish korxonalar faoliyatini rivojlantirish uchun muhim yo'nalishlarni aniqlash imkonini beradi.

Moliyaviy faoliyatni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar keltirib o'tadigan bo'lsak, misol tariqasida quyidagilarni keltirib o'tilgan:

1. Moliyaviy rejalashtirish: Dastlabki bosqichda moliyaviy reja tuzish va uni yangilab turish zarur. Bu xarajatlar va daromadlarni aniqlashga yordam beradi.

2. Mablag'larni boshqarish: Mablag'larni oqilona taqsimlash va uzluksiz nazorat qilish muhim bo'lib, sarmoyalarni diversifikatsiya qilish orqali risklarni kamaytirish mumkin.

3. Xarajatlarni optimallashtirish: Keraksiz xarajatlarni aniqlash va minimallashtirish moliyaviy holatni yaxshilaydi. Autobudjet va xarajatlarni monitoring qilish tizimini joriy etish.

4. Daromadlarni oshirish: Yangi mahsulotlar yoki xizmatlar ishlab chiqish, bozorda raqobatbardoshlikni oshiradi. Marketing strategiyalarini va reklama xarajatlarni ko'rib chiqish ham foydali bo'lishi mumkin.

³ "Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlar hisobi va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar asosida takomillashtirish yo'nalishlari" maqola. Eshpulatova Zaynab Baratovna. Nov-2023

5. Moliyaviy nazorat: Harajatlar va daromadlarni muntazam ravishda nazorat qilish, moliyaviy hisobotlarni va iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish.

6. Kadrlar malakasini oshirish: Moliyaviy faoliyatni boshqarish bo'yicha ishchilarni o'qitish va ularning malakasini oshirish orqali samaradorlikni oshirish mumkin.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali moliyaviy faoliyatni takomillashtirishimiz mumkin.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, moliyaviy faoliyatni takomillashtirish tashkilot yoki kompaniyaning iqtisodiy barqarorligini, raqobatbardoshligini va foydaliligini oshirish asosiy maqsadi hisoblanadi. Moliyaviy faoliyatni tahlil qilish natijalari orqali muammolar shuni ko'rsatadiki, ya'ni unda mablag'larni samarali boshqarish, xarajatlarni kamaytirish, daromadlarni oshirish va moliyaviy rejalashtirish jarayonini yaxshilash eng muhimidir. Korxonalarda moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston korxonalarida xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini joriy etish:

moliyaviy shaffoflikni oshiradi, investorlar va xalqaro hamkorlar ishonchini kuchaytiradi, moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirib, iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, (2000-2005).
2. Buxgalteriya hisobi nazariyasi / R.O.Xolbekov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T.:Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2011.
3. "Moliya" – R.H.Parker, A.A.Smith.
4. "Shaxsiy moliya" –G.E.McLanahan.
5. "Investitsiyalar" – Z. Bodie, A. Kane, A.J. Marcus.
6. "Qimmatli qog'ozlar bozorining analizi" S.A. Ross, R.W. Westerfield, J.F.Jaffe.
7. "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining < Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizomni tasdiqlash to'g'risida> gi Qarori.1999-yil 5-fevral. 54- son.
8. 2-son BHMS "Asosiy xo'jalik faoliyatidan tushgan daromadlar" (AV tomonidan 26.08.1998 y. 483-son bilan ro'yxatga olingan Moliya vazirligi tomonidan 20.08.1998 y. 41- son bilan tasdiqlangan).

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

